

**KASB-HUNAR MAKTABLARIDA KASBIY FANLARINI O'QITISHDA
INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI
FOYDALANISH**

XOLDORALIYEVA NAFOSATXON RAVSHANOVNA

Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

KARIMOVA NARGIZA ILHOMJON QIZI

Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi

RASULJONOVA MADINA ABDULATIF QIZI

Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada innovatsiya, innovatsion ta'lism haqida tushuncha berilgan. Qolaversa kasb-hunar maktablarida kasbiy fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lism texnologiyalardan samarali foydalanish haqida fikrlar bayon qilingan.

KALIT SO'ZLAR: kasb-hunar maktabi, innovatsiya, innovatsion ta'lism, innovatsiya, metod, pedagogik texnologiyalar, texnik vositalar, o'qituvchi o'quvchi.

Kasb-hunar maktablaridagi dars jarayoni umumiyl o'rta ta'lism maktablariga nisbatan farqli ravishda bo'ladi. Chunki kasb-hunar maktablarida umumta'lim fanlari bilan bir qatorda maxsus (kasbiy) fanlar nomli kafedra ham faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilar uchun esa bu holat notanish bo'lib, bu holatga ko'nikma hosil qilish o'quvchilar uchun bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Aynan o'quvchilar kasbiy fanlarni o'zlashtirishga qiziqishlarini rivojlantirish, va ushbu fanlar uchun bilim, ko'nikmava malaka hosil qilish uchun o'qituvchilar dars jarayonida turli xil metodlar pedagogik texnologiyalar, xususan innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi zarur. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilar uchun darsni mavzusini oson tushunish, chuqur o'rganish, bilim va ko'nikmaga ega bo'lish kabi imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsiya inglizcha "innovation" - yangilik kiritish, ixtiro degan ma'nolarni bildiradi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki innovatsiya bu yangilik, ixtirodir. Xo'sh unda innovatsion ta'lism nima?

Innovatsion ta'lism ta'lism oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdirdi. [1]

Odatda, innovatsion ta'lism jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lism texnologiyalari yoki ta'lism innovatsiyalari deb yuritiladi.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etishi uchun, turli texnik vositalardan ya'ni kompyuter, proyektor, elektron doska va boshqalardan

foydanishi, interfaol metodlar, grafik organayzerlar asosida dars o'tishi ham mumkin. Masalan tikuvchi biror kiyimni biror detalni biriktishni, o'quvchilarga video rolik orqali tushuntirishi, traktrchi-mashinist mutaxassisligi o'qituvchilari esa mavzuni slaytlar orqali tushuntirishi, elektrontomtyor yo'nalishidagilar ham shu usulda dars o'tishi nazariy shaklda o'tilgan darsdan ko'ra samarali natijaga erisha oladi. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Xo'sh o'qituvchilarda innovatsiyalar qanday vujudga keladi? O'qituvchida innovatsiyalar, o'quvchilarga mavzuni oson tushunishi va ko'p ma'lumotga ega bo'lishi uchun bo'lishi uchun o'z faoliyatini yangilashga harakat qilib, izlanishi orqali vujudga keladi.

"Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi" degan edi mashhur pedagog A. Nikolskaya.[2] Bu so'zlari orqali fikrimiz nechoqlik to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'qituvchilar mavzuni sermazmun qilib ko'zlagan maqsadiga erishishi uchun avval, dars mavzusiga tayyorgarlik ko'radi, darsning tashkiliy qismlarini texnik vositalar, interfaol metodlardan foydalangan holda rejalashtiradi va ularni amalga oshiradi. Qanday innovatsion ta'limdan foydalanishni esa o'qituvchi, o'quvchilarni ma'lumot qabul qila olish qobiliyatlarini inobatga olgan holda tanlaydi. Masalan tikuvchi muataxassisligi o'qituvchilari o'zining sohasiga o'quvchilarni qiziqtirish uchun ekskursiya metodi orqali ortirishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lган qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.[3]

Innovatsion ta'lim texnologiyalar orqali o'quvchi mavzuni oson tushunadi, dars jarayonida bevosita o'zi qatnashadi ya'ni darsda e'tiborsiz qolgan bola bo'lmaydi, dars qiziqarli o'tishi ta'minlanadi, o'quvchini dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'zi xulosa qila olishga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'qituvchi hamisha izlanishda bo'lishi, o'zini kamchiliklarini anglagan holda, uni bartaraf etish yo'llarini topib yangilik sari intilishi zarur. O'z fanini o'quvchilarga yetkaza olishning eng samarali usuli bu-innovatsion texnologiyalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" O'quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.

2. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik 15-20 b.
3. Sayibova Zuxra Yunusovna” INNOVATION TECHNOLOGIYALARNING TA’LIM SOHASIDAGI O‘RNI” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz March, 2023